

BIRINCHI RENESSANS PEDAGOGIK QARASHLARGA FIKRLARIM**Xolbayeva Dildora Azizovna**

Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi.

Abdurahmonova Sevinch

Angren Universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221507>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘rta Osiyoda XIX–XI -asrlar oralig‘ida yuz bergan ilm-fan va madaniyat yuksalishi - birinchi Renessans davridagi pedagogik qarashlar yoritiladi. Bu davrda yashab o‘tgan allomalar ta’lim-tarbiya sohasiga qanday ilmiy-falsafiy yondashganlari, bu g‘oyalar zamonaviy ta’lim uchun qanday ahamiyatga ega ekani haqida tahliliy fikrlar bayon etilgan. Mavzuga doir shaxsiy fikrlarini ham bildirgan.

Kalit so‘zlar: 1-Renessans, pedagogik tafakkur, O‘rta Osiyo allomalari, ta’lim, tarbiya, ilmiy meros, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, pedagogika tarixi.

MY THOUGHTS ON THE PEDAGOGICAL VIEWS OF THE FIRST RENAISSANCE

Annotation. This article covers the pedagogical views of the first Renaissance, the rise of science and culture in Central Asia between the 19th and 11th centuries. Analytical views are expressed on how the scholars who lived during this period approached the field of education and upbringing scientifically and philosophically, and what significance these ideas have for modern education. Personal opinions on the topic are also expressed.

Keywords: 1st Renaissance, pedagogical thought, Central Asian scholars, education, upbringing, scientific heritage, Forabiy, Beruniy, Ibn Sina, history of pedagogy.

МОИ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ЭПОХИ ПЕРВОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические воззрения эпохи Первого Возрождения, расцвет науки и культуры в Средней Азии в XIX–XI веках. В статье анализируются научные и философские подходы учёных этого периода к проблемам образования и воспитания, а также значение этих идей для современного образования.

Также даются собственные мнения по данной теме.

Ключевые слова: Первое Возрождение, педагогическая мысль, среднеазиатские учёные, образование, воспитание, научное наследие, Форабий, Беруний, Ибн Сина, история педагогики.

Kirish

“Renessans” atamasi o‘zbek tiliga “uyg‘onish”, “qayta tug‘ilish” deb tarjima qilinadi. Bu atama asosan Yevropa madaniyatidagi XIX–XI asrlarga oid uyg‘onish davrini ifodalashda ishlatiladi. Ammo olimlar e’tirof etganidek, Renessans jarayoni aslida bundan ancha oldin, ya’ni XIX–XI - asrlarda Sharqda - xususan O‘rta Osiyoda boshlangan. Shuning uchun bu davr “Sharq Uyg‘onish davri” yoki “1-Renessans” deb ataladi. Bu atama tarixiy voqelikni aniq ifodalovchi ilmiy tushunchadir. Sababi, aynan shu davrda ilm-fan, falsafa, adabiyot, san’at, tibbiyot, matematika, pedagogika kabi sohalarda ulkan yutuqlarga erishilgan. Bu uyg‘onishning markazi O‘rta Osiyo bo‘lib, bu yerda yashab ijod qilgan allomalar inson tafakkurining yangi pog‘onaga ko‘tarilishiga zamin yaratganlar.

Menimcha, 1-Renessans davrining eng muhim jihatlaridan biri — bu davrda shakllangan pedagogik qarashlardir. Bu fikrni asosan uch asosga tayangan holda ilgari surish mumkin:

Birinchidan, bu davr olimlari ilm-fan rivojining zamini sifatida aynan ta'lim va tarbiyaga e'tibor qaratgan. Ular bilimni avloddan-avlodga o'tkazish, uni xalq farovonligi uchun xizmat qildirishni muhim deb bilganlar.

Ikkinchidan, o'sha davr allomalari o'z asarlarida bolalarning yosh xususiyatlari, o'qitish metodlari, o'qituvchi shaxsining roli, axloqiy tarbiya, intellektual rivojlanish haqida chuqur fikrlar bildirganlar.

Abu Nasr Forobiy (870–950) - mashhur mutafakkir, Sharq Aristoteli, faylasuf, alloma. U ta'limni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko'radi. Uning "Fozil odamlar shahari" asarida ideal jamiyat, axloq, ta'lim va tarbiya muammolari keng yoritilgan.

Forobiy nazarida pedagog - bu faqat bilim beruvchi emas, balki ma'naviy jihatdan komil insondir. U pedagog shaxsida zakovat, sabr, rostgo'ylik, adolat, bag'rikenglik kabi xislatlar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Forobiyning "Inson faqat bilim orqali baxtga erishadi" degan fikri meni chuqur o'ylantiradi. Haqiqatdan ham, inson jamiyatda o'z o'rnini topishi, komil shaxs bo'lishi, boshqalarga foyda keltirishi uchun ilm talab qilishga intilishi zarur. Forobiy bu borada zamonaviy ta'lim nazariyasining asoschisi sifatida qaralishi mumkin.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) - buyuk geograf, astronom, faylasuf, pedagogik qarashlari bilan ham mashhur. U ilmning har bir sohasi bilan shug'ullangan va o'z asarlarida yoshlarni ilmga jalb etish, tajriba asosida o'rgatish haqida ko'plab fikrlar bildirgan. Beruniy fikricha, o'qitish jarayoni faqat og'zaki tarzda bo'lmasligi, balki hayotiy misollar, tajribalar orqali amalga oshirilishi zarur. Menimcha, bugungi kundagi STEM yondashuvi – ya'ni fan, texnologiya, muhandislik va matematikani uyg'unlashtirib o'qitish g'oyasi ham aynan Beruniy tafakkuridan ildiz olgan.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) - tibbiyot olimi, faylasuf, pedagog. U inson salomatligi, ruhan va jismoniy sog'lomlikni ta'lim-tarbiyaning poydevori sifatida ko'radi. Uning asarlarida bola psixologiyasi, yoshga mos ta'lim, o'qituvchining ruhiy tayyorgarligi haqida ko'plab fikrlar mavjud. Ibn Sino bolalarga ko'p yuklamaslik, ularning qobiliyatlariga qarab mashg'ulotlarni tashkil qilish tarafdori bo'lgan. Uning "Ilm talab qilish bolalikdan boshlanishi kerak" degan gapi har bir o'qituvchiga yo'l-yo'riq beruvchi hayotiy haqiqatdir. Ibn Sino pedagogik merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Imom at-Termiziy (824–892) merosi alohida e'tiborga loyiq. U mashhur muhaddis, ya'ni hadis ilmining yetuk namoyandasi bo'lishi bilan birga, islomiy pedagogika - ma'naviy tarbiya asoslarini shakllantirishga ulkan hissa qo'shgan. Uning ilmiy faoliyati, uslubi, tanlagan yo'nalishlari, aytgan fikrlari bugungi pedagogik tafakkur uchun ham muhim ahamiyatga ega. Termiziy asarlarining qadri shundaki, u hadislarni faqat yig'ibgina qolmagan, ularni tartibga solgan, mavzular bo'yicha ajratgan, hayotiy-tarbiyaviy ma'nosini ochib bergan. Ya'ni, bu yondashuv o'z davrida ilmni tizimlashtirish, o'rgatish, tushuntirish va tarbiyaviy g'oyalarni singdirish metodikasiga asoslangan edi.

At-Termiziy ilmga yondashuvda ikkinchi darajali tashqi tafsilotlardan ko'ra, inson qalbi va niyatini tarbiyalashni ustuvor deb bilgan. Hadislarda kelgan axloqiy-ruhiy tushunchalarni u chuqur tahlil qilgan. Masalan, sabr, halollik, rostgo'ylik, odob, ustozga hurmat, ilmga ixlos, kamtarlik kabi tushunchalar at-Termiziy hadislarida doimiy uchraydi. Uning hadislarida ustoz-shogird munosabati ham yuksak qadriyat sifatida ko'rsatilgan. Ilm olish - bu shunchaki ma'lumot yig'ish emas, balki ustozning yuragidan shogird qalbiga o'tadigan tarbiya maktabi ekanini u doimo ta'kidlab o'tgan. Hadislarni faqat yod olish emas, ularning mazmunini chuqur anglash, hayotda tatbiq qilish - bu Termiziyning asosiy yondashuvlaridan biridir.

Shu o'rinda, mening shaxsiy fikrimcha, Imom at-Termiziyning bu bugungi ta'limdagi ruhiy-axloqiy tarbiya muammolarini hal qilishda muhim manba bo'la oladi. Ayniqsa, bugun yoshlar ongida qadriyatlar zaiflashayotgan bir davrda, at-Termiziy kabi allomalarimiz merosini chuqur o'rganishimiz va amaliy ta'limga tadbiiq qilishimiz zarur. Uning har bir hadisni tartibga solib, mavzular bo'yicha ajratganligi - hozirgi ta'lim metodologiyasidagi modullashtirilgan yondashuvga juda yaqin. Bu esa u kishining pedagogik fikrlash salohiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Imom Termiziy shunday bir davrda yashadi-ki, uning zamondoshlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar ilm-fanni rivojlantirayotgan bo'lsa, u - odamlarning qalbini poklash, axloqiy yetuklik sari yetaklash orqali jamiyatni yuksaltirish yo'lini tutdi.

Bu ikki yo'l - ya'ni tafakkur (aql) va ma'naviyat (qalb) uyg'unligi - 1-Renessans davrining eng yuksak fazilatidir.

Demak, Termiziy merosi faqat diniy manba emas, balki islomiy pedagogikaning boy xazinasi sifatida e'tirof etilishi kerak. U insonni komil qilish yo'lida nafaqat dars, balki tarbiya, nafaqat so'z, balki hol (ya'ni hayotiy namuna) orqali o'qitish zarurligini anglatadi.

Imom at-Termiziy 1-Renessans davrining ma'naviy-ma'rifiy poydevorini qo'ygan buyuk shaxsdir. U hadis ilmi orqali insonni tarbiyalash, axloqiy jihatdan yetuklashtirish, jamiyatni nurli yo'lga boshlashni maqsad qilgan. Uning ilmiy yondashuvi, hadislarini tizimlashtirish uslubi, tarbiyaviy g'oyalari - bularning barchasi bizga islomiy pedagogika namunasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois, uni 1-Renessans olimlari safida munosib o'rin egallagan, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (taxm. 783–850) – dunyo ilm-fan tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk allomalardan biridir. U matematik, astronom, geograf, lekin eng muhimi – ilmni tizimlashtirib, uni o'rganish va o'rgatish metodikasiga ilmiy asos yaratgan pedagog hamdir.

Al-Xorazmiy — "algebra" va "algoritim" so'zlarining kelib chiqishiga sababchi bo'lgan, bu orqali matematika fanining yangi bosqichini boshlab bergan allomadir. Al-Xorazmiyning "Kitob al-jabr val-muqobala" asari bugungi algebra fanining poydevorini yaratgan bo'lib, bu kitob matematikani faqat ilm emas, balki hayotiy zaruratga asoslangan amaliy vosita sifatida tushuntirgan. Bu esa ta'limda fanlarni o'quvchiga real voqelik bilan bog'lab o'rgatish kerakligini bildiradi. Ushbu asar o'z davrida nafaqat olimlar, balki yosh o'rganuvchilar, o'qituvchilar uchun ham qo'llanma bo'lgan. Unda al-Xorazmiy har bir formulani hayotiy misollar bilan tushuntirgan.

Bu esa shuni ko'rsatadiki, u o'quvchining bilimni faqat yod olish emas, balki tushunish, qo'llay olish orqali egallashini maqsad qilgan. Bu yondashuv bugungi zamonaviy konstruktivistik ta'lim nazariyasiga juda mos tushadi.

Shuningdek, al-Xorazmiy o'z asarlarida sodda va aniq tilda bayon qilishga intilgan, murakkab tushunchalarni oddiy shaklda izohlashga harakat qilgan. Bu esa o'quvchining yoshini, tafakkur darajasini inobatga olgan holda o'qitish tamoyiliga to'liq mos keladi. Uning ilmiy merosi shunchalik muhimki, IX asrdayoq uning asarlari Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" (Donishmandlar uyi) ilmiy markazida o'rganilgan va keyinchalik yunon, lotin tillariga tarjima qilinib, Yevropa Uyg'onish davriga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Fikrimcha, Al-Xorazmiy pedagogik jihatdan ikki muhim yo'nalishda o'rnak bo'la oladi:

Birinchidan, ilmni real hayot bilan bog'lagan, ya'ni fanni amaliyotga xizmat qildirish yo'lini ochgan.

Ikkinchidan, murakkab tushunchalarni oddiy shaklda o'rgatish orqali bilimning ommalashuvi uchun zamin yaratgan.

Uning ushbu yondashuvlari bugungi kunda ham har bir o'qituvchi uchun o'rnak bo'lishi kerak. Ayniqsa, bugungi texnologik zamonda informatika, matematika va algoritmik tafakkurni o'qitishda al-Xorazmiy merosiga tayanish – nafaqat ilmiy, balki milliy qadriyatimizni saqlashdir.

Mening shaxsiy fikrimcha, 1-Renessans davrida shakllangan pedagogik qarashlar biz uchun faqat tarixiy qiziqish emas. Ular bugungi ta'lim tizimimizni boyitish, unga milliy ruh, ma'naviy teranlik olib kirish imkonini beradi. Bu davr olimlari ilmni o'rganishga chaqiradi, lekin faqat o'rganish emas - anglash, amal qilish, foyda keltirishga undaydi. Ular pedagogikani insonparvarlik asosida qurishni tavsiya etadilar. Maktab yoki maktabgacha ta'lim muassasasi faqat dars beriladigan joy emas, balki bolaning ongini, qalbini, ma'naviyatini uyg'otadigan maskan bo'lishi kerak. Ularning g'oyalari zamonaviy ta'limning muhim tamoyillarini belgilab bergan.

Xulosa qilib aytganda, XIX-XI-asrlar oralig'ida O'rta Osiyoda yuz bergan 1-Renessans davri nafaqat ilm-fan va madaniyatning, balki pedagogik tafakkurning ham yuksalgan davridir.

Bu davr allomalari tomonidan ilgari surilgan ta'lim-tarbiya g'oyalari bugungi kundagi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tamal toshi bo'la oladi. Ularning merosi chuqur o'rganilishi, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda tatbiq qilinishi zarur. 1-Renessans - bu faqat tarixiy hodisa emas, balki bizning ilmiy, ma'naviy va pedagogik o'zligimizdir. Unga qaytish - bu o'z ildizimizga, bilim va tafakkurga bo'lgan sadoqatimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A.N. — “Fozil shahar ahli”, Toshkent, 2003
2. Ibn Sino — “Tib qonunlari”, Abu Ali ibn Sino nomidagi Respublika ilmiy markaz
3. Beruniy A.R. — “Tanlangan asarlar”, “Fan” nashriyoti, Toshkent
4. A'lamov B. — “Sharq uyg'onish davri va pedagogika”, Samarqand, 2020
5. Qodirov N. — “O'rta asrlar pedagogik merosi”, Toshkent, 2018
6. Al-Xorazmiy. “Al-jabr val-muqobala. T.A. Ibragimov, Toshkent: Fan, 1984.
7. Xolmatov M. — “Al-Xorazmiy va uning ilmiy merosi”, Toshkent, 1999
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1-jild, “Al-Xorazmiy” maqolasi
9. Qodirov N. — “O'rta asrlar pedagogik merosi”, Toshkent, 2018